



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI SUDYALAR OLIY KENGASHINING Q A R O R I

2026-yil 30-iyul

Nº 2154

Sudyalar o'rtasida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash va baholash Siyosatini tasdiqlash to'g'risida

O'zbekiston Respublikasi Sudyalar oliy kengashi "O'zbekiston Respublikasi Sudyalar oliy kengashi to'g'risida"gi Qonunning 7, 17-moddalari hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 8-iyundagi PF-106-son Farmoniga muvofiq

Q A R O R Q I L A D I:

1. Sudyalar o'rtasida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash va baholash Siyosati ilovaga muvofiq tasdiqlansin.
2. Ushbu qaror qabul qilingan kundan e'tiboran kuchga kiradi.

Kengashi raisi



X.Yodgorov

Sudyalar o'rtasida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash va baholash SIYOSATI

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Mazkur Siyosat O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi, harbiy sudlar, Qoraqalpog'iston Respublikasi sudi, viloyatlar va Toshkent shahar sudlari, Qoraqalpog'iston Respublikasi ma'muriy sudi, viloyatlar va Toshkent shahar ma'muriy sudlari, tumanlararo, tuman (shahar) sudlari, O'zbekiston Respublikasi Sudyalar oliy kengashi (keyingi o'rinlarda – sud organlari)da korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida hamda sudyalar o'rtasida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash va baholash bo'yicha yagona yondashuvni belgilaydi.

Siyosat sud organlarida korrupsiyaga nisbatan mutlaq murosasizlik muhitini shakllantirish, halollik va qonuniylik tamoyillarini mustahkamlash, korrupsiyaviy holatlarni oldini olish hamda sudyalarda yuksak xizmat madaniyatini qaror toptirishga qaratilgan.

2. Mazkur Siyosat O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi, "Sudlar to'g'risida"gi qonunlar va boshqa qonunchilik hamda ichki idoraviy hujjatlarga muvofiq ishlab chiqilgan.

3. Ushbu Siyosat talablari sud organlarining barcha sudyalariga (shu jumladan Kengashning barcha xodimlari) nisbatan tatbiq etiladi.

4. Sud organlarida korrupsiyaga qarshi kurashish davlat organlari, huquqni muhofaza qiluvchi organlar, Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi, fuqarolik jamiyati institutlari, ommaviy axborot vositalari hamda fuqarolar bilan hamkorlikda amalga oshiriladi.

2-bob. Sudyalar o'rtasida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash va baholash siyosatining asosiy maqsadlari va tamoyillari

5. Sud organlarida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash va baholash siyosatining asosiy maqsadlari quyidagilardan iborat:

sud organlari faoliyatini kompleks tahlil qilish orqali korrupsiyaviy xavf-xatarga eng ko'p duch keladigan funksiyalarni aniqlash hamda korrupsiyaviy xavf-xatar yuqori bo'lgan lavozimlar ro'yxatini shakllantirish;

korruptsiyaga qarshi kurashish bo'yicha amalga oshirilgan chora-tadbirlarni monitoringdan o'tkazish orqali korruptsiyaga qarshi ichki nazorat tizimining samaradorligini oshirish;

korruptsiyaviy xavf-xatarlarni qonunchilik hujjatlarini takomillashtirish, inson omilini qisqartirish, tegishli tartib-taomillar va funksiyalarni raqamlashtirish, shaffoflikni ta'minlash hamda boshqa samarali choralarni amalga oshirish orqali minimallashtirish, ularning oldini olish va bartaraf qilish;

sudyalarda korruptsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish, ularga "halollik vaktsinasi"ni singdirish hamda korruptsiyaga qarshi kurashish sohasidagi bilim va ko'nikmalarini oshirish;

korruptsiyaga oid huquqbuzarliklarning kelib chiqish sabablari va shart-sharoitlarini bartaraf etish;

korruptsiyaviy xavf-xatarlarni muntazam aniqlash, baholash va minimallashtirish;

manfaatlar to'qnashuvining oldini olish va uni samarali boshqarish;

sud organlarida korruptsiyaga qarshi kurashish ichki nazorat tizimini takomillashtirish;

korruptsiya haqida xabar berishning xavfsiz mexanizmlarini joriy etish.

6. Sud organlarida korruptsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash va baholash siyosati quyidagi tamoyillarga asoslanadi:

qonuniylik;

inson huquq va erkinliklarining ustuvorligi;

ochiqlik va shaffoflik;

halollik;

manfaatlar to'qnashuviga yo'l qo'ymaslik;

profilaktika choralarining ustuvorligi;

javobgarlikning muqarrarligi;

tizimlilik.

7. Sud organlari rahbarlari va tarkibiy bo'linmalar rahbarlari shaxsiy namuna ko'rsatishi, korruptsiyaning har qanday ko'rinishiga murosasiz munosabatni shakllantirishi, sudyalardan tomonidan mazkur Siyosat talablariga qat'iy amal qilinishi uchun shaxsan mas'ul hisoblanadi.

3-bob. Korruptsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash va baholashni tashkil etish

8. Korruptsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash va baholash sud organlarining barchasini qamrab olgan holda yoki alohida-alohida tarkibiy bo'linma faoliyati (vazifa va funksiyalari) bo'yicha amalga oshiriladi.

9. Sud organlarida (sudyalarga nisbatan) korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash va baholash ishlarini tashkil etish va muvofiqlashtirishga Kengashning Sudyalar daxlsizligini ta'minlash va korrupsiyaning oldini olish bo'yicha sud inspeksiyasi (Sud inspeksiyasi) mas'ul hisoblanadi.

10. Sud organlarida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash va baholash har yili 1 martga qadar amalga oshiriladi.

11. Sud inspeksiyasi tomonidan korrupsiyaviy xavf-xatarlarning xaritasini shakllantirishda quyidagi holatlar tahlil qilinishi lozim:

sudyalarning zimmasiga yuklatilgan vazifalarni bajarish bo'yicha har bir funktsiya doirasida amalga oshiriladigan jarayonlar tavsifi va unga mas'ul shaxslar haqidagi ma'lumotlar;

sudyalardan sodir etilgan korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar;

sud organlari tomonidan faoliyatini (vazifa va funktsiyalarini) amalga oshirishda davlat organlari va tashkilotlari mansabdor shaxslari hamda jismoniy va yuridik shaxslar uchun sun'iy to'siqlarning mavjudligi;

hujjatlar, elektron ma'lumotlar bazalariga bila turib yolg'on ma'lumotlarning kiritilishi;

xizmat vakolatlarini amalga oshirishda manfaatlar to'qnashuvi holatlariga yo'l qo'yilishi;

vakolatlarni amalga oshirishda mahalliychilik, homiylik,

urug'-aymoqchilik va boshqa salbiy holatlarning mavjudligi.

12. Sud organlari faoliyatidagi (vazifa va funktsiyalardagi) korrupsiyaviy xavf-xatarlar ichki va tashqi axborot manbalari asosida aniqlanadi.

4-bob. Korrupsiyaviy xavf-xatarlarni bartaraf etish choralari

13. Sud inspeksiyasi tomonidan sud organlari bilan hamkorlikda korrupsiyaviy xavf-xatarlarni minimallashtirish, ularning oldini olish va bartaraf qilish bo'yicha chora-tadbirlar dasturi ishlab chiqiladi.

14. Sud organlarida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni bartaraf etish choralari quyidagi shakllarda amalga oshirilishi mumkin:

normativ-huquqiy hujjatlar hamda ichki idoraviy hujjatlar loyihalarini ishlab chiqish;

inson omilini qisqartirish va sud organlari faoliyatini (vazifa va funktsiyalarini) raqamlashtirish, shaffoflikni ta'minlash, jamoatchilik nazoratini yo'lga qo'yish;

sud organlari tomonidan korrupsiyaga qarshi kurashishga qaratilgan tushuntirish ishlarini amalga oshirish va profilaktik choralar ko'rish;

sudyalarning korrupsiyaga qarshi kurashish va manfaatlar to'qnashuvini tartibga solish bo'yicha ichki hujjatlarga to'liq rioya qilishlarini nazorat qilish.

Korrupsiyaviy xavf-xatarlarni bartaraf etish bo'yicha qonunchilik hujjatlariga zid bo'lmagan boshqa chora-tadbirlar ham amalga oshirishi mumkin.

5-bob. Korrupsiyaviy huquqbuzarliklar to'g'risida xabar berish

15. Sudyalar o'zlarini korrupsiyaga oid huquqbuzarlik sodir etishga undash, pora taklif qilish, xizmat vakolatlarini suiiste'mol qilishga chaqirish yoki boshqa korrupsiyaviy xatti-harakatlarga jalb etishga qaratilgan har qanday murojaatlar to'g'risida darhol tegishli sudyalar malaka hay'atlari va Kengashning Sud inspeksiyasini yoki qonunchilikda belgilangan tartibda vakolatli huquqni muhofaza qiluvchi organlarni xabardor qilishi shart.

16. Sudyalar xizmat faoliyati davomida o'zlariga ma'lum bo'lgan korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar, manfaatlar to'qnashuvi holatlari, xizmat vakolatlarini suiiste'mol qilish, favoritizm, nepotizm, mahalliychilik, urug'-aymoqchilik yoki korrupsiyaviy xavf-xatarlarni yuzaga keltiruvchi boshqa holatlar haqida belgilangan tartibda xabar berishi shart.

17. Sud organlarida korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar to'g'risida xabar berish uchun quyidagi aloqa kanallari tashkil etiladi:

Sudyalar malaka hay'atlari hamda Sud inspeksiyasiga bevosita murojaat qilish;

sud organlarining rasmiy elektron pochta manzillari;

maxsus ishonch telefoni;

rasmiy veb-saytdagi elektron murojaatlar tizimi;

yozma murojaatlar;

qonunchilikda nazarda tutilgan boshqa aloqa kanallari.

Ushbu kanallar orqali kelib tushgan murojaatlar belgilangan tartibda ro'yxatga olinadi, ko'rib chiqiladi va tahlil qilinadi.

18. Korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar haqida xabar bergan shaxs to'g'risidagi ma'lumotlar sir saqlanadi hamda ularning oshkor qilinishiga qonunchilikda nazarda tutilgan hollardan tashqari yo'l qo'yilmaydi.

Sud inspeksiyasi va murojaatlarni ko'rib chiquvchi boshqa mas'ul shaxslar mazkur ma'lumotlarning maxfiyligini ta'minlashi shart.

19. Korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar haqida vijdonan xabar bergan sud organlari sudyalari, xodimlari, fuqarolar va boshqa shaxslarga nisbatan har qanday ta'qib, tazyiq, kamsitish, xizmat mavqeini pasaytirish, mehnat huquqlarini cheklash yoki boshqa salbiy ta'sir choralari qo'llash taqiqlanadi.

Bunday holatlarga yo'l qo'ygan mansabdor shaxslar qonunchilikka muvofiq javobgar bo'ladilar.

20. Sud inspeksiyasi korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar to'g'risida kelib tushgan murojaatlarni xolisona, to'liq va o'z vaqtida ko'rib chiqishni ta'minlaydi.

Zarur hollarda:

xizmat tekshiruvi tayinlanadi;

qo'shimcha hujjatlar va tushuntirishlar so'rab olinadi;

vakolatli davlat organlari bilan hamkorlik qilinadi;

korrupsiyaning kelib chiqish sabablari va shart-sharoitlari tahlil qilinadi hamda ularni bartaraf etish bo'yicha takliflar kiritiladi.

21. Agar murojaatda keltirilgan ma'lumotlar xizmat tekshiruvi yoki qonunchilikda belgilangan tartibda o'tkazilgan o'rganish natijalariga ko'ra tasdiqlansa, aybdor shaxslarga nisbatan intizomiy, ma'muriy, fuqarolik-huquqiy yoki jinoiy javobgarlik choralari qo'llanilishi uchun tegishli materiallar vakolatli organlarga yuboriladi.

22. Korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar haqida qasddan yolg'on ma'lumot bergan shaxslar qonunchilikda belgilangan tartibda javobgar bo'ladilar.

Shu bilan birga, vijdonan xabar bergan, ammo o'tkazilgan tekshiruv natijasida ma'lumotlari tasdiqlanmagan shaxslarga nisbatan javobgarlik choralari qo'llanilmaydi.

23. Sud organlarida korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar to'g'risida kelib tushgan murojaatlar, ularning ko'rib chiqilish natijalari hamda aniqlangan tizimli muammolar Sud inspeksiyasi tomonidan muntazam tahlil qilinadi.

Tahlil natijalari asosida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni bartaraf etish, ichki nazorat mexanizmlarini takomillashtirish, profilaktika chora-tadbirlarini kuchaytirish va sudyalarning huquqiy ongi hamda halollik madaniyatini yuksaltirish bo'yicha Sudyalar oliy kengashi rahbariyatiga takliflar kiritiladi.

6-bob. Korrupsiyaga qarshi ichki nazorat, monitoring va javobgarlik

24. Sud organlarida korrupsiyaga qarshi kurashish siyosati talablarining bajarilishi ustidan doimiy ichki nazorat amalga oshiriladi.

Ichki nazoratning asosiy maqsadi korrupsiyaviy huquqbuzarliklarning oldini olish, korrupsiyaviy xavf-xatarlarni o'z vaqtida aniqlash, ularni bartaraf etish hamda korrupsiyaga qarshi kurashish tizimining samaradorligini ta'minlashdan iborat.

25. Sudyalar orasida korrupsiyaga qarshi ichki nazoratni tashkil etish va muvofiqlashtirish Kengashning Sudyalar daxlsizligini ta'minlash va korrupsiyaning oldini olish bo'yicha sud inspeksiyasi tomonidan amalga oshiriladi.

Sud inspeksiyasi o'z faoliyatini mustaqillik, xolislik, qonuniylik, oshkoralik va manfaatlar to'qnashuviga yo'l qo'ymaslik tamoyillari asosida amalga oshiradi.

26. Sud inspeksiyasi quyidagi asosiy vazifalarni amalga oshiradi:

mazkur Siyosat talablarining bajarilishini monitoring qilish;

sud organlari faoliyatida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash, baholash va ularning elektron reyestrini yuritish;

korrupsiyaviy xavf-xatarlarni bartaraf etish bo'yicha takliflar ishlab chiqish;

manfaatlar to'qnashuvini boshqarish tizimi samaradorligini baholash;

korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar haqidagi murojaatlarni tahlil qilish;

xizmat tekshiruvlarini o'tkazish etish yoki ularni tashkil etish;

korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha ichki hujjatlar ijrosini nazorat qilish;

sud organlari rahbariyatiga tahliliy ma'lumotlar va takliflar kiritish;

korrupsiyaga qarshi o'quv kurslar, seminarlar va profilaktik tadbirlarni tashkil etish.

27. Sud organlari rahbariyati, shuningdek, tegishli malaka hay'atlari raislari o'z vakolatlari doirasida:

korrupsiyaga qarshi talablarga rioya etilishini ta'minlaydi;

korrupsiyaviy xavf-xatarlarni o'z vaqtida aniqlash va bartaraf etish choralarini ko'radi;

sudyalar o'rtasida halollik va xizmat intizomini mustahkamlaydi;

Sud inspeksiyasiga zarur ma'lumot va hujjatlarni belgilangan muddatlarda taqdim etadi;

korrupsiyaga qarshi chora-tadbirlar ijrosi uchun shaxsan mas'ul hisoblanadi.

28. Sud organlarida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimining samaradorligi muntazam ravishda baholab boriladi.

Bunda quyidagilar tahlil qilinadi:

korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash natijalari;

xizmat tekshiruvlari materiallari;

korrupsiyaga oid murojaatlar statistikasi;

manfaatlar to'qnashuviga oid ma'lumotlar;

mol-mulki va daromadlari deklaratsiyalari;

ommaviy axborot vositalari hamda ijtimoiy tarmoqlardagi ma'lumotlar;

korrupsiyaga qarshi chora-tadbirlar dasturining ijro holati.

29. Sud organlari rahbarlari korrupsiyaga qarshi kurashish tizimining samarali ishlashi, korrupsiyaviy xavf-xatarlarning o'z vaqtida bartaraf etilishi, mazkur Siyosat talablarining bajarilishi hamda sudyalor o'rtasida halollik muhitini shakllantirish uchun shaxsan mas'ul hisoblanadilar.

7-bob. Yakunlovchi qoidalar

30. Sud organlarida sudyalarga oid korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash va baholash natijalari haqida O'zbekiston Respublikasining Sudyalar oliy kengashi raisiga axborot beriladi.

31. Ushbu Siyosat quyidagi hollarda qayta ko'rib chiqilishi va unga tegishli qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritilishi mumkin:

sudyalar o'rtasida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash va baholash bo'yicha amaldagi siyosat va tartib-taomillarni qayta ko'rib chiqish zarurati kelib chiqqanda;

korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi o'zgarganda.

32. Mazkur Siyosat talablari buzilishida aybdor bo'lgan shaxslar qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda javobgar bo'ladi.